



MINTAQANING BARQAROR RIVOJLANISHI JARAYONIDA MEHNAT SALOHIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH: SAMARADORLIGGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Kutlimuratov Mansurbek Sattarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, To'rtko'l fakulteti "Mutaxassislik ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar" kafedrasida assistent o'qituvchisi

mbekman1881@gmail.com

Annatsiya: *Mintaqa barqaror rivojlanishi global iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning muhim qismi hisoblanadi. Mintaqa rivojlanishida mehnat salohiyati samaradorligini oshirish muhim rol o'ynaydi, chunki mehnat resurslari iqtisodiy o'sish, atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi. Ushbu tezisda mintaqa barqaror rivojlanishini ta'minlashda mehnat salohiyati samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.*

Tadqiqot maqsadi – ushbu yo'llarni nazariy va amaliy jihatdan asoslash, shuningdek, O'zbekiston misolida takliflar ishlab chiqish. Tezis quyidagi tuzilishga ega: mehnat salohiyatining mohiyati, samaradorlik omillari, oshirish yo'llari va xulosalar.

Kalit so'zlar: *Mehnat, mehnat salohiyati, mehnat samaradorligi, mehnat resurslari, ischi kuchi,*

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va rag'batlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish davrda mehnat salohiyati muahamiyatga ega bo'lib qoldi. Mehnat - insonning muayyan ehtiyojlarini qondira oladigan va o'ziga kerak bo'ladigan moddiy yoki ma'naviy ne'matlarini ishlab chiqarish (yaratish) bo'yicha ongli, maqsadli va taqiqlanmagan faoliyatidir.

Mehnat salohiyatining mohiyati va barqaror rivojlanishdagi o'rni

Mehnat salohiyati – bu aholining mehnatga layoqatli qismi, fuqarolar soni va ularning malaka darajasi. Barqaror rivojlanishning uch ustuni – iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy – mehnat salohiyati orqali bog'lanadi. Masalan, samarali mehnat iqtisodiy o'sishni ta'minlasa, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali atrof-muhitni asraydi va adolatli taqsimot orqali ijtimoiy barqarorlikni oshiradi.

Mehnat salohiyatining samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan o'lchanadi: mehnat unumdorligi (bir xodim tomonidan yaratilgan yalpi ichki mahsulot), bandlik darajasi va malaka darajasi. Jahon mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda mehnat unumdorligi rivojlanayotgan mamlakatlarnikidan 5-10 baravar yuqori. O'zbekiston uchun bu ko'rsatkichni oshirish barqaror rivojlanishning kalitidir.

Mehnat salohiyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar bular:





Ta'lim va malaka oshirish tizimi orqali zamonaviy iqtisodiyotda raqamli ko'nikmalar, chet tillari va kasbiy malaka muhim omil hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash va mehnat sharoitlarini yaxshilash natijasida sog'lom xodim yaratilgan qulay mehnat sharoitlarida samarali ish faoliyat yuritadi.

Texnologik ta'minot va innovatsiyalar natijasida avtomatlashtirish va sun'iy intellekt mehnat unumdorligini oshiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar orqali gender tengligi, migratsiya va bandlik siyosatini olib borish muhimligini inobatga olish lozim.

Davlat siyosati va maqsadli yo'naltirilgan investitsiyalar mehnat bozori infratuzilmasi, soliq imtiyozlari va subsidiyalar samaradorlikni rag'batlantiradi.

«Mehnat salohiyati» kategoriyasi turli xil mualliflar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lib, bu mehnat salohiyatini hozirgi paytda iqtisodiy o'sishning o'ziga xos qonuniyatlarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Bu borada, bir tomondan, mehnat salohiyati to'g'risidagi to'plangan qarashlar umumlashtirib, bir tizimga tushirilsa, boshqa tomondan mehnat salohiyatining shakllanishi, foydalanish va uning kelajakda rivojlanish yo'llarini boshqarishni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan keng doiradagi nazariy-metodologik masalalarni yoritib berish zarur. «Mehnat salohiyati» mehnat imkoniyati, quvvati, mehnat bilan bog'liq kuchlarning mavjudligi degan ma'noni bildiradi.

Mazkur kategoriyani tahlil qilib, ba'zi olimlar mehnat salohiyati bilan mehnat resurslari bir-biridan farq qiladi, mehnat salohiyati mehnat resurslari va ishchi kuchiga nisbatan kengroq tushuncha Ta'lim tizimi va mehnat bozori talablari o'rtasidagi nomuvofiqlik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilari ko'pincha amaliy ko'nikmalar va zamonaviy kasbiy bilimlar etishmasligini boshdan kechiradilar. Bu ish beruvchilar tomonidan qo'yiladigan talablar bilan ta'minot o'rtasidagi "bo'shliqni" keltirib chiqaradi. Malakani yangilash va qayta tayyorlash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Texnologik o'zgarishlar tezligi bilan hozirgi ishchilar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy yangilab turishlari shart. Biroq, qayta tayyorlash va malakani oshirishning arzon, qulay va samarali mexanizmlari hali ham keng yo'lga qo'yilmagan. "Ishchi kuchi sifati" muammosi. Ko'plab sohalarda ishchilarning asosiy kasbiy ko'nikmalari past darajada qolmoqda. Bu esa mehnat unumdorligining pastligi, mahsulot va xizmatlar sifati muammolariga olib keladi.[1]

Mehnat salohiyati samaradorligini oshirish yo'llari birinchi navbatda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishni o'z ichiga oladi, bular:

- Dual ta'lim tizimini joriy barcha sohalarga etish.
- Raqamli ta'lim platformalarni yaratish yoki halqaro platformalarni milliy darajada moslashtirish.
- Kasbiy ta'lim markazlarini rivojlantirish yani har bir viloyatda zamonaviy texnoparklar tashkil etish.



Malakani oshirish va qayta tayyorlashning yangi shakllarini rivojlantirish zarur xisoblanadi. Bunda kadrlarni Massive Open Online Courses (MOOCs) [2] va mahalliy onlayn kurslardan keng foydalanishni rag'batlantirish lozim bunda kadrlar yangi bilimlar va konikmalarni egallashda yordam beradi.

Xulosa

Mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda mehnat salohiyati samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, texnologiya, ijtimoiy adolat va davlat siyosati sohasidagi islohotlar orqali O'zbekiston mintaqaviy yetakchiga aylanishi mumkin. Ushbu yo'llar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolatni ham ta'minlaydi. Kelajak avlodlar uchun munosib hayot yaratish – bugungi kunning eng muhim vazifasi.

Adabiyotlar

1. Ergashov Doston Boxodir o'g'li "Mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni ijtimoiy iqtisodiy mohiyati" JOURNAL OF INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH sentyabr 2022-yil
2. <https://www.mooc.org/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi.